



## XALQ DEPUTATLARI ZARAFSHON SHAHAR KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 10-sentabr

VII-15-155-5-78-K/25

Zarafshon shahar

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 10-fevraldagi PF – 6166-son va “Davlat organlari va tashkilotlarda ijro intizomini yanada mustahkamlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 25-iyuldagi PF – 117-son Farmonlari ijrosi yuzasidan 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida shahar hokimligida olib borilgan ishlar to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 10-fevraldagi PF–6166-son (Bundan keyin matnda–PF–6166-son Farmon) va “Davlat organlari va tashkilotlarda ijro intizomini yanada mustahkamlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 25-iyuldagi PF–117-son Farmon(Bundan keyin matnda–PF–117-son Farmon)lari ijro intizomini mustahkamlashda asosiy tayanch hujjat sifatida xizmat qilmoqda.

Mazkur Farmonlar davlat boshqaruvi tizimida intizom va mas’uliyatni kuchaytirish, qonunchilik hujjatlarining ijrosini o‘z vaqtida va sifatli ta’minlashga qaratilgan. Jumladan, ularning asosiy maqsadi:

davlat organlari va mahalliy hokimiyat rahbarlarining shaxsiy javobgarligini oshirish;  
qabul qilingan qonun, farmon va qarorlarning to‘liq va o‘z vaqtida bajarilishini kafolatlash;

ijro intizomini buzgan mansabdor shaxslarga nisbatan qat’iy javobgarlik choralari qo‘llash;

davlat xizmatida oshkoralik, samaradorlik va natijadorlik tamoyillarini mustahkamlashdan iboratdir.

Shuningdek, PF–6166 va PF–117-son Farmonlari ijro intizomini ta’minlash jarayonida:

nazorat va monitoring tizimlarini takomillashtirish, ijro intizomi holatini muntazam ravishda o'rganib borish;

rahbar va ijrochi xodimlarning faoliyatini natija ko'rsatkichlari asosida baholash va rag'batlantirish;

davlat boshqaruvi va ijro organlarida raqamli nazorat mexanizmlarini keng joriy etish;

ijro intizomiga oid ma'lumotlarni ochiq-oshkora e'lon qilish orqali jamoatchilik nazoratini kuchaytirish kabi chora-tadbirlarni nazarda tutadi.

Natijada, qonunchilik hujjatlarining hayotga tatbiq etilishi samaradorligi oshadi, byurokratik to'siqlar kamayadi, ijro intizomi buzilishining oldi olinadi. Bu esa, o'z navbatida, xalqchil davlat boshqaruvini shakllantirish va fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, mazkur Farmonlarda belgilangan vazifalar ijrosini samarali tashkil etish maqsadida edo.ijro.uz elektron hujjat aylanish tizimi amaliyotda muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. 2025-yilning yanvar–sentabr oylarida shahar hokimligiga mazkur tizim orqali jami 4 ming 506 ta hujjat kirim qilingani ham ijro intizomining ochiqligi va nazorat mexanizmlarining raqamlashtirilganligini yaqqol ko'rsatmoqda.

Hisobot davrida kelib tushgan hujjatlar tarkibida:

64 tasi – O'zbekiston Respublikasi qonunlari,

75 tasi – Oliy Majlis Senatining qaror va topshiriqlari,

16 tasi – Oliy Majlis Qonunchilik palatasi qarorlari,

49 tasi – Prezident farmonlari,

87 tasi – Prezident qarorlari,

1 tasi – Prezident farmoyishi,

51 tasi – Prezident maslahatchilari topshiriqlari,

102 tasi – Vazirlar Mahkamasi qaror va farmoyishlari,

52 tasi – Vazirlar Mahkamasi majlis va rayosat yig'ilishi bayonnomalari,

502 tasi – Bosh vazir va uning o'rinbosarlari topshiriqlari,

78 tasi – Xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashi sessiyasi qaror va topshiriqlari,

6 tasi – Navoiy viloyati hokimining farmoyishlari,

54 tasi – Navoiy viloyati hokimining qarorlari,

602 tasi – viloyat hokimi va uning o'rinbosarlari topshiriqlari,

2 058 tasi – respublika va viloyat tashkilotlari topshiriqlari,

23 tasi – shahar prokuraturasi hujjatlari,

686 tasi – telefonogrammalar hamda shahar hududidagi tashkilotlardan kelgan xatlarni tashkil etdi.

Umumiy 4 506 ta hujjatdan 3 695 tasi ijroga qaratilib, shundan 2 092 tasi to'liq bajarilgan, 1 603 ta hujjatning ijro muddati davom etmoqda. Shuningdek, 154 ta hujjatning ijrosi belgilangan muddatdan keyin yakunlangan bo'lsa-da, ularning barchasi to'liq bajarilgan. Jumladan, ijro jarayonlarining kechikishi asosan ayrim mas'ul rahbarlar hissasiga to'g'ri kelgan: A. Shoxmirzayev (65 ta), X. Oripov (33 ta), S. Uvaytov (29 ta), S. Ebotov (4 ta), L. Tursunova (3 ta), M. Karimov (6 ta), Sh. Sirojov (5 ta), O. Xotamova (1 ta), S. Safarov

(2 ta), E. Ikromov (1 ta), Sh. Ne'matov (1 ta), Sh. Ikromov (1 ta), G. Ro'ziyeva (2 ta) va J. Yorqulov (1 ta).

Mazkur ko'rsatkichlar ijro intizomini mustahkamlash borasida erishilayotgan yutuqlarni ko'rsatib, jarayonlarni yanada samarali tashkil etish imkonini bermoqda.

Shu maqsadda shahar hokimi huzurida 138 marotaba, hokim o'rinbosarlari huzurida esa 516 marotaba muhokamalar o'tkazilib, bayonnomalar asosida mas'ullarga aniq topshiriqlar berilgan. Bundan tashqari, 77 ta dastur tasdiqlanib, amaliy ijroga qaratilgan hamda yuqori tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish maqsadida 2 053 ta aloqa xati yuborilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va topshiriqlarining ijrosini bandma-band ta'minlash maqsadida 822 ta baddan iborat nazorat-reja ishlab chiqilgan.

Bundan tashqari, topshiriqlar bilan oldindan ishlash tizimini samarali yo'lga qo'yish maqsadida, ijro muddatlari keyingi oyda keladigan topshiriqlar (eslatma xatlari) shahar hokimligi tarkibiy bo'linmalari kesimida shakllantirilib, shahar hokimining topshirig'iga muvofiq har oyning 25-sanasida barcha mas'ullarga muntazam yetkazib kelinmoqda.

Ushbu ma'lumotlar PF-6166 va PF-117-son Farmonlari talablarining hayotga izchil tatbiq etilayotganidan dalolat beradi. Xususan, elektron hujjat aylanishi tizimi orqali ijro intizomining to'liq monitoringi, kechikishlarga yo'l qo'ygan mansabdorlarning shaxsiy javobgarligini aniqlash hamda hokimlik faoliyatida shaffoflikni ta'minlashga erishilmoqda.

2025-yil yanvar-sentabr oylarida shahar hokimligi va hududdagi korxonalar, tashkilotlar rahbarlari, shuningdek mas'ul xodimlar tomonidan ish yuritish, ijro intizomiga rioya qilish, yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida va lozim darajada bajarish borasida ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yilgan. Mazkur holatlarni bartaraf etish, intizomni mustahkamlash hamda mas'ullarning mas'uliyatini oshirish maqsadida shahar hokimligi tomonidan intizomiy jazo choralarini qo'llanilgan.

Xususan, hisobot davrida shahar hokimi o'rinbosarlarining 4 nafariga jami 6 marotaba intizomiy jazo chorasi qo'llanilgan. Shundan 3 holatda o'rtacha oylik ish haqining 30 foizi miqdorida jarima intizomiy jazo chorasi belgilangan.

Shahar hokimligi boshqaruv apparatining uch nafar xodimga "hayfsan" intizomiy jazosi qo'llanilgan. Mahallalardagi hokim yordamchilarining ikki nafari vazifasidan ozod etilgan, yana ikki nafariga "hayfsan" intizomiy jazosi qo'llanilgan. Shahar hokimligi ish beruvchi tashkilot sifatida ikki nafar tashkilot rahbariga nisbatan jami 3 marotaba "hayfsan" intizomiy jazo chorasi qo'llagan.

Bundan tashqari, shahar hududidagi boshqa korxonalar va tashkilot rahbarlariga intizomiy jazo chorasi qo'llash maqsadida ularning yuqori turuvchi tashkilotlariga turli darajadagi taqdimnomalar kiritilgan.

Intizomiy jazo choralarining qo'llanishi shahar hokimligi tizimida ijro intizomini mustahkamlash, mas'ullar faoliyatini samarali tashkil etish hamda ularda shaxsiy mas'uliyat hissini oshirishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son, 2025-yil 25-iyuldagi PF-117-son Farmonlari hamda 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-

son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar muntazam ravishda shahar, viloyat va respublikadagi ommaviy axborot vositalarida yoritib kelinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi muassisligidagi "Yangi O'zbekiston" gazetasida 2024-yilda hamda 2025-yilning o'tgan davrida jami 2 marotaba maqola chop etilib, unda Davlat rahbari boshchiligida respublikada olib borilayotgan islohotlar Zarafshon shahri misolida keng jamoatchilikka yetkazilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son, 2025-yil 25-iyuldagi PF-117-son Farmonlari hamda 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qarori ijrosini samarali tashkil etish maqsadida har haftaning juma kuni shahar hokimining birinchi o'rinbosari huzurida, dushanba kuni shahar hokimligi apparat yig'ilishlarida ijro intizomining ahvoli va "edo.ijro.uz" elektron tizimidagi topshiriqlarning ijrosi yuzasidan tanqidiy muhokamalar o'tkazilib kelinmoqda.

"Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6-va 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari shahar Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. Shahar hokimligida 2025-yilning yanvar-sentabr oyida ijro intizomi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar hamda "edo.ijro.uz" elektron tizimidagi Prezident hujjatlari ijrosi bo'yicha shahar hokimi N. Rahmanovning axboroti ma'lumot sifatida qabul qilinsin va ijroga yo'naltirilsin.

2. Muddati kechiktirilib bajarilgan 154 ta hujjat bo'yicha mas'ul shaxslarning javobgarligini oshirish, takroran bunday holatlarga yo'l qo'ymaslik maqsadida shahar hokimligi va tegishli tashkilotlar tomonidan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilsin va amalga oshirilsin.

3. Shahar hokimligi (A. Shoxmirzayev, X. Oripov, S. Ebotov, S. Uvaytov, L. Tursunova), tegishli korxonalar va tashkilotlar rahbarlariga:

"edo.ijro.uz" elektron tizimida ro'yxatdan o'tgan barcha topshiriq va vazifalarning o'z vaqtida, sifatli hamda to'liq bajarilishini ta'minlash;

ijro intizomi buzilishining oldini olish maqsadida ichki nazoratni kuchaytirish, intizom buzilishiga yo'l qo'ygan mas'ul xodimlarga nisbatan qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlik choralari qo'llash;

har haftaning juma kuni shahar hokimining birinchi o'rinbosari huzurida, dushanba kuni esa shahar hokimi rahbarligida tashkil etiladigan apparat yig'ilishlarida ijro intizomi holati va elektron tizimdagi topshiriqlar ijrosi yuzasidan tanqidiy muhokamalarni muntazam o'tkazib borish;

mas'ul xodimlar uchun ijro intizomi va elektron tizimdan foydalanish bo'yicha seminar va o'quv mashg'ulotlarini muntazam tashkil etish;

har chorakda ijro intizomi bo'yicha tahliliy hisobot tayyorlab, uni xalq deputatlari shahar Kengashiga taqdim etish;

kechiktirilgan yoki lozim darajada bajarilmagan topshiriqlarni tahlil qilib, sabab va omillarni aniqlash, ularni bartaraf etish bo'yicha manzilli chora-tadbirlar ishlab chiqish, tegishli mas'ullarga ogohlantirishsiz qat'iy javobgarlik belgilash hamda shahar hokimiga axborot taqdim etishga qat'iy amal qilsinlar.

4. Shahar hokimligi ijro intizomi nazorati bo'yicha bosh mutaxassis Sh. Ne'matov har oyning yakuni bilan elektron tizimdagi topshiriqlar ijrosi to'g'risida batafsil tahliliy axborotni tayyorlab, shahar hokimi va hokim o'rinbosarlariga taqdim etib borsin.

5. Xalq deputatlari shahar Kengashi kotibiyati (E. Davlatov) tegishli mas'ullar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan hujjatlarning ijrosini samarali tashkil etish yuzasidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish.

6. Shahar hokimligi axborot xizmati rahbari – matbuot kotibi (J. Yorqulov) hamda "Oltin vodi" gazetasi (G. Bobomurodova)ga:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son, 2025-yil 25-iyuldagi PF-117-son Farmonlari va 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son Qarorida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlarni keng yoritish;

mazkur yo'nalishda erishilgan natijalarni jamoatchilikka yetkazish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi muassisligidagi "Yangi O'zbekiston" gazetasida maqola chop etilishini ta'minlash vazifasi yuklatilsin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish shahar hokimining barcha o'rinbosarlari va xalq deputatlari shahar Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



RAXMANOV NAZIRBEK  
ISRAILOVICH